

**ABDULLAH AVLONI IS A WRITER WHO SANG ABOUT THE IDEAS OF
ENLIGHTENMENT AND NATIONAL REVIVAL**

**ABDULLA AVLONIY – MA'RIFATPARVARLIK VA MILLIY UYG'ONISH G'OYALARINI
KUYLAGAN ADIB**

Abdusalomova Muslima Gayratjon qizi

Tashkent State University named after Nizami

3rd year student of the Faculty of History of the University of Dagestan

ANNOTATION

This article argues that Abdulla Avloni's views in the field of education are closely linked with the psyche, lifestyle, national values of the Uzbek people, his rich pedagogical heritage has served as a valuable source in the development of the national school, national pedagogy.

Keywords: ethical category, fatonat, jadidism, classical literature, aesthetics, drama, poetry, printing house, textbook

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanligi, uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy kategoriya, fatonat, jadidchilik, mumtoz adabiyot, estetika, drama, she'riyat, bosmaxona, darslik

INTRODUCTION

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir. Turkiston hududida jadid maktablarining vujudga kelishi - taraqqiyotning yangi davri edi. Bunday maktablar uchun zamon talablariga to'la javob bera oladigan pedagoglar guruhini tarbiyalab yetishtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, yangi, zamonaviy o'qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o'qiyuvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etishni Abdulla Avloniy hech ikkilanmasdan o'z bo'yniga oldi. Shuni ham unutmaslik kerakki, Abdulla Avloniy birinchi o'zbek teatri tashkilotchilaridan edi. Teatr uchun bir necha drama yaratdi, ularni rejissyor sifatida sahnalashtirdi. Uning bu faoliyati o'z maktabida xor, ifodali o'qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlarni ifodali o'qish sohasidagi bunday faoliyati tezda Toshkentning usuli qadim va usuli jadid maktablariga ham kirib bordi. Mana shunday sharoitda yangi ochilayotgan maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchilarini tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib

turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamal bo'ladigan qo'llanma kerak edi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari Turkiston jadidlarining rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov hamda ilg'or pedagoglarning taklifi bilan yaratilgan edi.

Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriylar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o'quvchilardan ko'ra ko'proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so'zlari "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining maqsadini to'la ifodalaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidur. Ta'lif ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrilmayduran, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur".

Avloniy yaratgan asarlar hali-hanuz o'z ahamiyati saqlagan holda, hozirgi zamon darsliklari uchun dasturilamal vazifasini o'tamoqda. U asarlar yuksak tarixiy-pedagogik mazmunga ega bo'lgan ta'limi, qomusiy manbalardir. Shu boisdan ham bu qo'llanmalarga bo'lgan qiziqish hamda talab so'nggi besh yillikda yanada kuchaydi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy asarlarining tub mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularda o'z aksini topgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik,adolat, diyonat, insonprvarlik tushunchalariga oid fikrlarning bugungi zamon uchun ham nechog'lik katta ahamiyat kasb etishini ilg'ash mumkin. Abdulla Avloniy asarlarida yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlargacha hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik talqini bayon etilgan S.Nishonova, O.Musurmonova, U.Mahkamov kabi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari shu jihatdan e'tiborga loyiqidir.

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, ta'lif-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog olimdir.

Rivojlanishning yuksak pog'onasi tomon odimlagan har bir mamlakat, avvalo, yoshlarning ta'lif-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Sababi, farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir. U shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: "Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasbi axloqindadur", demishlar" va adib ta'kidlaganidek: Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq va axloqimizni rivojlanmoq lozim. Bugungi kun pedagoglari Abdulla Avloniyning: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan muqaddas bir vazifadur", degan fikrlariga tayanadi desak also yanglishmaymiz.

A.Avloniy shu tariqa sabr, hilm, miqyosi nafs, intizom, vijdon kabi insoniy fazilatlar haqida chuqur ma'noli fikrlar bayon qiladi. Ammo Vatan haqidagi qarashlari yanada muhimroq, yanada e'tiborliroq. Vatan - Ona kabi yagona, Ona kabi muqaddas. Bu mavzu necha-necha

asrlar davomida adabiyot va san'at ahllari e'tiborini o'ziga maftun etib kelgan va bu hozirda ham davom etib kelmoqda.

2017-yilning 3-avgust kuni davlatimiz rahbari mamlakatimizning ijodkor hamda ziyolilar qatlami bilan yig'ilish o'tkazgan edi. Yig'ilish davomida san'at va madaniyat sohasidagi xato va kamchiliklar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, shuningdek, sohani rivojlantirish uchun kerakli taklif va mulohazalar aytib o'tildi. Yig'ilish davomidagi Yurtboshimizning quyidagi so'zlari e'tiboga loyiqdir: "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbli va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir". Aytib o'tish joizki, Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish institutining tashkil etilishi ham bugungi kunda Xalq Ta'limi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishi ham serqirra ijodkor, adibimizning bugungi zamonaviy hayotimizdagi ta'siri va ahamiyati deyishimiz mumkin. Shu jumladan, Toshkent Davlat Pedagogika universitetida Abdulla Avloniy nomidagi maxsus stipendiya va ko'krak nishonining ta'sis etilishi ham yoshlar o'rtasida ilmiy salohiyatini oshirish va ijodkorlik ruhidagi talabalarga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochadi.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatları bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy mакtab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siyoshi, faoliyati biz uchun qadrlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent - 2017, "O'zbekiston", 593 b
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -Toshkent: "O'zbekiston", 1998.- B.31. 4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".
3. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: "Sharq", 1997, 20-30-betlar.
4. O'zbek tili ta'limida pedagogik texnologiyalarning o'rni. "O'zbek tili" doimiy anjumani o'n birinchi yig'ini materiallari.-Toshkent.-B.288.
5. Takomillashgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim"jurnali.- Toshkent,2005,5-son.